

FURQAT LIRIKASIDA BAHOR TASVIRI

Jo‘rayeva Nargiza Tilovmurodovna

Termiz davlat universiteti akademik litseyi

O‘qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi o‘zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo‘lgan Furqatning lirik she’riyati tahlil qilinadi. Ayniqsa, shoir ijodida bahor mavzusi qanday tasvirlangani, uning poetik san’atda qanday badiiy vositalar orqali ifodalangani chuqur tahlil etiladi. Bahor obrazining Furqat lirikasidagi ruhi, estetik yondashuvi va uning ijtimoiy-ruhiy ma’nodagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada Furqatning bahorga bag‘ishlangan she’rlari tahlil qilinib, undagi timsollar, metaforalar, badiiy tasvir vositalari orqali shoirning tabiatga, hayotga, keljak umidlariga bo‘lgan munosabati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Furqat, lirika, bahor, tabiat tasviri, badiiy vosita, obraz, she’riyat, ruhiy holat, metafora, simvol.

O‘zbek adabiyoti tarixida o‘ziga xos poetik yo‘nalishga ega bo‘lgan shoirlardan biri bu – Furqatdir. U o‘zining samimiyligi, hayotiy va ruhiy boy she’riyati bilan o‘zbek lirikasini yangi bosqichga olib chiqqan. Furqat she’rlarida tabiat, ayniqsa bahor fasli alohida o‘rin tutadi. Bahor – yangilanish, hayot, muhabbat va umid timsoli sifatida shoir lirikasining asosiy mavzularidan biri hisoblanadi.

XIX asrning uchinchi choragida o‘zbek adabiyoti sahnasiga kirib kelgan Furqat, adabiyotda yangi yo‘nalishlar yaratgan shoir sifatida tanilgan. Adabiyotshunos Begali Qosimov uning lirik shoirlik qirrasini alohida e’tirof etadi. Garchi u ilk o‘zbek gazetalaridan birida faoliyat yuritib, ko‘plab maqolalar yozgan va “Sarguzashtnomasi” kabi asar muallifi bo‘lgan bo‘lsa-da, xalq uni asosan shoir sifatida tan olgan. Bu esa Furqatning o‘zbek adabiyotida gumanistik lirikaning taraqqiy etishiga katta hissa qo‘shganidan dalolat beradi. Uning she’riy merosi, xususan, samimiyligi tuyg‘ular bilan boyitilgan g‘azallar, erkinlikka tashna musaddaslar va ayrılıq azoblarini aks ettirgan maktublari o‘zbek adabiyotiga yangicha ohanglar olib kirdi. Furqat ijodini o‘rganar ekanmiz, unda turli janrlarning keng qamrovi va mazmuniy xilma-xilligini kuzatamiz. Shoир g‘azal, muxammas, musaddas, manzuma, masnaviy kabi she’riy janrlarda samarali ijod qilgan. Ayniqsa, uning g‘azallarida mavzularning boyligi, ehtiros va ichki kechinmalarning kuchli ifodasi kitobxonni hayratga soladi. Har bir g‘azal o‘ziga xos tuzilma, badiiy ifoda va ruhiy holat bilan ajralib turadi. Qofiya, radif va badiiy san’at vositalarining mohirona qo‘llanilishi esa shoirning ichki dunyosini ochib beradi.

Furqat o‘zining lirik merosi bilan o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin egallagan shoirlardan biridir. Uning g‘azallari son jihatdan salmoqli bo‘lib, ular 200 atrofida

ekani ma'lum. Ushbu g'azallarning asosiy mavzusi inson va koinot o'rtasidagi murakkab va chuqur bog'liqlik, ularning o'zaro munosabatlaridir.

Shoir lirik janrning deyarli barcha turlarida — g'azal, musamman, tarji'band, masnaviy, qasida, qit'a va fardlarda o'z salohiyatini namoyon qilgan. U she'riyatda eng avvalo Alisher Navoiy va Fuzuliyni o'ziga ustoz deb bilgan, ularning ijodidan ilhom olib, ba'zida bu ilhom ohang va mazmun uyg'unligigacha yetgan. Masalan, Navoiyyning mashhur tarji'bandidagi "Nechuk may bila bo'lmasin ulfatim" satri bilan boshlangan band orqali shoir bu dunyo sirlarini anglashda o'z ojizligini ifodalagan. U koinotning murakkab tuzilmasi, hayot va o'limning sabablari oldida hayratda qolgan. Hatto ilm, ibodat, sohbatlar yoki murshid va tabiblar ham unga haqiqatni anglashda yordam bera olmaganini achinish bilan tasvirlaydi. Band ohangdor tarzda «Xarobat aro kirdim oshufta hol, May istarga ilgimda sing'on safol» bayti bilan yakunlanadi.

Furqatning mashhur "Ko'ngul dardiga topmay boraman hargiz davo istab" deb boshlanadigan g'azali ham mazmunan aynan shu ruhda yozilgan. Bu asarda ham shoir ichki iztirobini badiiy vositalar orqali ifodalaydi.

Furqatning bu kabi she'rlari inson qalbining eng nozik, eng chuqur iztirob va izlanishlarini aks ettiradi. Shoir o'z asarlari orqali nafaqat o'zining, balki har bir o'quvchining ichki kechinmalarini, hayotdagi murakkab savollarni ifodalaydi.

Furqatning she'rlarida Vatan manzaralari, bahor go'zalligi, jo'shqin muhabbat tuyg'ulari, insoniy fazilatlar, hayotning quvonchli onlari va kundalik tashvishlari keng yoritilgan. U inson qalbi, tuyg'ulari, mehri va dardini nafis tarzda ifodalaydi. Masalan, "Bahor ayyomida gulgasht etarga bir chaman bo'lsa", "Umr xush o'tmas bahor ayyomi sahro bo'lmasa", "Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar xinodin lolarang", "Ko'ngul dardi g'atopmay boraman hargiz davo istab", "Fasli navbahor o'ldi ketubon zimistonlar" kabi g'azallari buning yorqin namunasidir. Shuningdek, "Etti falak", "Biri", "Istar ko'ngul", "Do'st", "Ko'kulung" radifli muxammaslari, Navoiy g'azallariga yozilgan taxmislari ham o'z davrining mazmun va badiiy jihatdan mukammal asarlari qatoridan joy olgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Furqat o'zbek adabiyotida mashhur g'azalnavis shoir sifatida tanilgan. Uning yozgan bir qancha g'azallari aruz vaznida bitilgan bo'lib, mumtoz lirikaning chiroyli namunalaridan hisoblanadi. Masalan, "Yashnab o'tsang lolagun xil'at kiyib, aylab shitob, Tushmag'aymu rasa ahlin jonlarig'a pechu tob" bayti bilan boshlanuvchi g'azali 7 baytdan iborat bo'lib, an'anaviy qofiyalanish tizimi — a-a, b-a, d-a, s-a tarzida davom etadi. Ushbu g'azal aruzning ramali musammani mahzuf bahrida yozilgan.

Mazmun jihatidan bu g'azal ishqiy-intim lirikaning yorqin namunasidir. Unda lirik qahramon o'z his-tuyg'ularini bevosita sevgiliga murojaat shaklida ifodalaydi. "Volai ruxsoring, ey, gul, gulshan ichra andalib, Ishqing emas, shavqing o'tida o'rtanib bo'lsa kabob" baytida ham shoir sevgi, muhabbat olovida kuyayotgan dil holatini

ifodalaydi. G‘azalda “ey, gul” kabi murojaat shakllari orqali sevgilining go‘zalligi va jozibasiga yuksak baho beriladi. Shuningdek, Furqat o‘z lirik qahramonini ko‘pincha bulbul timsolida tasvirlab, o‘zini gul atrofida visol izlayotgan, muhabbat dardida kuymoqda bo‘lgan bulbulga qiyos qiladi. Bu obraz uning ko‘plab she’rlarida uchraydi va Furqat lirikasining o‘ziga xos badiiy xususiyatlaridan biri sanaladi.

Shoir o‘zining umrini ezgulik va go‘zallik bilan bezab, mazmunli tarzda o‘tkazishni istaydi. Bu fikr, inson hayoti bahor faslidek o‘tkinchi ekani orqali ifodalanadi. G‘azaldagi “Fasli navbahor o‘ldi, ketibon zimistonlar, Do‘sstar g‘animatdur, sayr eting gulistonlar” misralari ham aynan shu hayot falsafasini aks ettiradi. Ushbu g‘azal tabiat mavzusida yozilgan bo‘lib, 8 baytdan tashkil topgan. Vazni esa hazaji musammani ashtar bo‘lib, unda radif ishlatilmaganligi bilan e’tiborni tortadi.¹

Ma’lumki, g‘azal san’atida badiiy vositalardan foydalanish orqali shoirning ichki kechinmalari, ruhiy holati ochib beriladi. Mazkur g‘azalda ham turli san’at turlariga murojaat qilingan. Masalan, birinchi baytda tazod san’ati yaqqol ko‘zga tashlanadi — “zimistonlar” va “gulistonlar” qarama-qarshiligi orqali.

Keyingi baytlarda esa tanosub san’ati qo‘llanilgan. “Nastaran yuvib yuzni, yosumon tuzib o‘zini, Nargis ochibon ko‘zni intizori yoronlar” misralarida gul nomlari bir-biriga mos holda tasvirlangan bo‘lib, ular o‘zaro bog‘liq g‘oyaviy hamohanglikni yuzaga keltiradi.

Shuningdek, “Qumrilar qilib ku-ku, bulbul aylabon chah-chah, Sarv gul uza doim tortar oh-u afg‘onlar” baytida tanosub san’ati qumri, bulbul, sarv va gul obrazlari orqali davom ettiriladi. Bundan tashqari, intoq — jonlantirish san’ati ham qo‘llanilgan, ya’ni qushlarga insoniy xususiyatlar beriladi.

Navbatdagi baytda, “Bulbul o‘qug‘och yig‘lab subhidam xazon faslin, G‘uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar” — tashxis san’ati yorqin ifoda topgan. Bu yerda bulbul yig‘laydi, g‘uncha esa “qon yutib”, gul “giribonini yirtadi”, ya’ni jonsiz tabiat obrazlariga insoniy sifatlar yuklangan.

Furqat ijodini tahlil qilar ekanmiz, uning lirikasida mavzular xilma-xilligi, obrazlar orqali chuqur ruhiy kechinmalar tasviri va badiiy vositalardan samarali foydalanish poetik mahoratini ko‘rsatadi. Shoирning so‘z boyligi, obraz yaratish qobiliyati va til ustida erkin ishlay olish salohiyati uning ijodining asosiy kuchlaridan biridir.

Furqat bahorni faqat fasl sifatida emas, balki ichki holat, ruhiy uyg‘onish, yangi bosqichning boshlanishi sifatida ko‘rsatadi. Shoир bahorni ilhom manbai deb biladi va bu fasl orqali o‘zining jamiyatga, hayotga, muhabbatga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi.

¹ G‘ulomov A. Furqat ijodi va uning badiiy olami. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 180 b.

Bahor obrazini yaratishda Furqat turli poetik vositalardan – tashbih, istiora, personifikatsiya (insonlashtirish), mubolag‘a kabi usullardan foydalangan. Masalan:

“Ko‘klam keldi, gullar ochdi, nargis kulib boqadi,
Dunyo go‘zal ranglar bilan, ko‘ngil yana toqadi...”

Bu kabi misralarda bahor insoniy hislar bilan uyg‘unlashtirilgan, tabiat unsurlari jonlantirilgan.

Furqat bahor faslini umid, kelajak, erkinlik ramzi sifatida ham ko‘rsatadi. U yurtdagi ijtimoiy-ma’naviy uyg‘onishlarni ham bahorning kirib kelishi bilan bog‘laydi. Shoир uchun bahor – yangi hayotga ishora, xalqning uyg‘onish belgisi bo‘lib xizmat qiladi.

Qo‘qon adabiy muhitining mashhur vakillari bo‘lmish Muqimiyl va Furqat o‘zlarining Navro‘zga bag‘ishlangan g‘azallari orqali xalqimiz ruhiyatida chuqur iz qoldirgan. Masalan, Furqatning “Fasli navbahor o‘ldi, ketibon zimistonlar” deb boshlanadigan g‘azali hamda Muqimiyning “Navbahor: ochildi gullar, sabza bo‘ldi bog‘lar, Suhbat aylaylik, kelinglar, jo‘ralar, o‘rtog‘lar” degan satrlari xalqimiz ma’naviyatining bebaho boyligiga aylangan.

Furqat bahorning kelishini, Navro‘z ayyomini go‘zal obrazlar vositasida tasvirlagan. U o‘z g‘azalida fasl o‘zgarishini, tabiat uyg‘onishini va bu go‘zalliklardan bahramand bo‘lish lozimligini ifodalaydi. Uning she’rlarida yomg‘irdan namlangan sabzazorlar, ochilayotgan gullar, sayr etayotgan qushlar orqali bahor manzarasi chiziladi.

Shuningdek, Furqat yana bir g‘azalida bahor faslida gulshanlar aro sayr qilish, samimiy do‘stlik muhitida bo‘lish kabi qadriyatlarni kuylaydi. U bu orqali Navro‘zning insoniy tuyg‘ularni uyg‘otuvchi, jamiyatda totuvlikni mustahkamlovchi jihatlarini alohida ta’kidlaydi.

Qadimdan xalqimiz bahor kelishini yangi yil deb bilgan va uni xursandchilik bilan kutib olgan. Sumalak pishirish, sayillar tashkil qilish, gul bayramlari o‘tkazish kabi an’analar bu faslga bo‘lgan muhabbatning ifodasıdir. Shoirlar esa o‘z ijodlari orqali bu udumlarni madh etgan, ularni asrab-avaylashga undaganlar.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Furqatning bahor va Navro‘z ayyomiga bag‘ishlab yozgan g‘azallari xalqimiz qalbida mustahkam joy olgan. Tabiat manzaralarini ifodalovchi bu she’rlari faqat go‘zallikni madh etish bilan cheklanmay, unda jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlik — dononing qadrsiz, nodonning esa e’zozda bo‘lishi kabi masalalar ham ohangdor tarzda yoritiladi. Bu, shoир ijodining chuqur ijtimoiy mazmun bilan sug‘orilganini ko‘rsatadi.

Furqat o‘z she’rlarida insoniy qadriyatlarni, milliy g‘ururni alohida ta’kidlaydi. Bunga yaqqol misollardan biri uning “Bormasmiz” radifli g‘azalidir. G‘azal quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Biz, istig‘no eli, qichqirmag‘on ma‘vog‘a bormasmiz,

Agar chandiki xirman aylasa dunyog‘a bormasmiz.

Bu baytda shoir o‘z xalqini izzat-nafs egasi, oriyatlari va g‘ururli insonlar sifatida tasvirlaydi. Ya’ni, biz o‘z qadriyatimizni bilamiz, hech qachon chaqirilmagan yoki istalmagan joyga o‘zimizni tiqishtirmaymiz. Hatto dunyo bizga boylik va ne’matlar taklif qilsa-da, agar u yerda ozgina bo‘lsa ham kamsitilish bo‘lsa, u joyga qadam bosmaymiz, deya qat’iy bayon qiladi.

Shoir tasvirni yanada kuchaytiradi: tasavvur qiling, biz sahroning o‘rtasida labimiz tashnalikdan kuyib turibmiz, lekin yo‘limizda bir daryo uchraydi. Agar shu daryo bizga malol kelishini, ya’ni uni xafa qilayotganimizni bilsak, suv ichmaslikni, undan yuz o‘girishni afzal bilamiz. Bu fikr quyidagi baytda ochiq ifoda etiladi:

Agar lab tashna qolsak, filmasal sahroyi olamda,

Malolat zohir etsa, mavj uran daryog‘a bormasmiz.

Bu g‘azalda o‘zbek milliy xarakterining eng asosiy jihatlari — g‘urur, izzat, mustaqil fikr va oriyat ifodalangan. Furqat bu she’r orqali nafaqat shaxsiy, balki butun xalqning ruhiy dunyosini, o‘ziga xos e’tiqod va hayotiy pozitsiyasini badiiy yuksaklikda tasvirlaydi. Bu kabi ifoda kuchi, xalqona ruh va milliy g‘ururni shu darajada sodda-yu ulug‘ tarzda aks ettirgan asar Furqatgacha ham, undan keyin ham o‘zbek adabiyotida kam uchraydi.

Xulosa qilib aytganda, Furqat lirikasida bahor tasviri shunchaki faslni madh etish emas, balki inson ruhiyatining, jamiyat holatining ifodasi sifatida xizmat qiladi. Shoir bu mavzuni yuksak badiiylik bilan, chuqur falsafiy va ruhiy mazmun ila tasvirlaydi. Bahor obrazining turfa qirralari orqali Furqat o‘z o‘quvchisida hayotga, keljakka, ezgulikka bo‘lgan ishonchni uyg‘otishga intiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Abdug‘aniyev A. O‘zbek she’riyati taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 2002. – 256 b.
2. G‘ulomov A. Furqat ijodi va uning badiiy olami. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 180 b.
3. Karimov A. O‘zbek lirikasida obraz va badiiy tasvir. – Samarqand: Zarafshon, 2010. – 145 b.
4. Rasulova M. Furqat lirikasi tahlilida yangicha yondashuv. // “Filologiya masalalari” jurnali, 2020, №4. – B. 84-89.
5. Furqat. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1983. – 320 b.